



## YOUTH IS THE FOUNDATION OF THE FUTURE

Nasriyeva Dilnoza Anvar qizi

Bukhara State University

2nd year master Nasriyeva Dilnoza

### **Annotation:**

This article is dedicated to the "Youth Forum" and the appeals of President Shavkat Mirziyoyev Miromonovich in the Oliy Majlis, about the opportunities created for young people, who are the backbone and pride of our state.

**Keywords:** "popular culture", youth forum, digital economy, renaissance; Jahon mamlakatlarida fuqarolik jamiyatini shakllantirish, o'sib kelayotgan avlodda islohotlarga daxldorlikni shakllantirish, ularnii ijtimoiy faollikka, mafkuraviy kurashchanlikka rag'batlantirishning ilmiy-pedagogik yechimlarini ishlab chiqishga oid ilmiy-nazariy tavsiyalar yaratishni taqozo etmoqda. Yoshlarni o'z mamlakatida bo'layotgan o'zgarish, hayot, islohotlarga nisbatan daxldorlik fazilatlarini shakllantirish, barcha turdag'i tahdidlarga nisbatan doimo ogoh bo'lish, asl qadriyatlarni soxtasidan, milliy madaniyatni «ommaviy madaniyat»dan ajratib olish va shu orqali inson ma'naviyati va madaniyatni hamda dunyoqarashini shakllantirishni ijtimoiy-pedagogik tahlil qilib, ilmiy asoslash dolzarb vazifaga aylandi.

Barkamol inson tarbiyasi, ayniqsa yoshlar qalbida yaxshilik, ezhulik, millat va Vatanga mehr qo'yish sifatlarini shakillantrish o'z-o'zidan bo'lmaydi. Albatta, bunda ilm-fanning rivoji alohida o'rinni egallaydi. 2020-yilga nom berishda prezidentimiz ushbu narsani inobatga olib quyidagicha izohlagan edilar: "Mamlakatimizda ilm-fanni yanada ravnaq toptirish, yoshlarimizni chuqur bilim, yuksak ma'naviyat va madaniyat egasi etib tarbiyalash, raqobatbardosh iqtisodiyotni shakllantirish borasida boshlagan ishlarimizni jadal davom ettirish va yangi, zamонавиy bosqichga ko'tarish maqsadida men yurtimizda 2020 yilga "Ilm, ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili", deb nom berishni taklif etaman." Albatta, o'tgan yil pandemiya sharoitiga qaramasdan ko'plab dasturlar amalga oshirildi.

Afsuski, hammaga ham maktab yoki litsey va kollejlarni bitirib, o'qishga kirish, talabalik baxtiga tuyassar bo'lish nasib qilmaydi. Shu sababdan yoshlar bandligini ta'minlash maqsadida ko'plab dasturlar va tashabbuslar ilgari surildi. Shulardan biri "Yoshlar 1+1" dasturi ishsiz va uyushmagan yoshlarni biriktirib, kasb-hunar kollejlarida o'qishini tashkillashtirishdan



iboratdir. Yoshlar bandligini oshirish sifatida tadbirkorlarimiz “Har bir tadbirkor – yoshlarga madadkor” tamoyilini ilgari surib, ushbu tashabbusni faol tarzda qo’llab quvvatlab kelmoqdalar.

Barcha rivojlanayotgan mamlakatlarga e’tibor berib qaraydigan bo’lsak, yoshlarga bo’lgan ishonchni, umidni ko’ramiz. Chunki bilamizki, yoshlar – kelajagimiz poydevori. Yoshlar doimo davlatning tayanchi hisoblanib kelgan. Qay tomonga boqmang, ular uchun yaratilayotgan imkoniyatlarni ko’ramiz. Biz yoshlardan kutiladigan narsa esa, faqatgina o’sha imkoniyatlardan unumli foydalanib, o’z kasbimizning mohir ustasi, sohamiz bo’yicha eng zo’r kadr bo’lib yetishish hamda davlatimizning rivoji va istiqboli uchun o’z hissamizni qo’shamog’imiz darkor. Buyuk davlatimizning buyuk kelajagini qurish , albatta, biz yoshlarning qo’lida. Biz bu Vatanning umidli yoshlarimiz! Shu o’rinda 1- prezidentimiz I.A. Karimovning gaplarini bir bor eslab o’tmoqchiman: “ “Mana shu tuproq maniki, bizniki deb yashash, mana shu yerda ota-bobomning xoki yotibdi, agar shu musaffo osmon, mana shu hayot uchun, vatanim uchun man kurashmasam, man jonimni fido etmasam, yana kim qiladi”- deb yashaydigan bolani, yigitni, qizni ko’rsam agar, manda qanot paydo bo’lgandek bo’ladi. Aynan shuni man inson omili deb bilaman. Takror aytaman, man xalqimizga murojaat qilmoqchiman, avvalambor, yoshlarimizga murojaat qilmoqchiman. Keljak- yoshlarniki. Ertangi kunni kim uchun quryapmiz, siz uchun quryapmiz, aziz bolalarim!”

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev Miromonovichning quyidagi fikrlari ham o’z o’rnida aytilgan ya’ni: “Yoshlarni ko’zi qachon yonadi: ishi bo’lsa, o’qiyotgan va sport bilan shug’ullanayotgan sporti bo’lsa, u makoni adolatli bo’lsa...” Biz yoshlarda hozir sanab o’tilgan barcha narsa muhayyo qilingan. Faqatgina bizdan kutilayotgan narsa bu befarg, loqayd bo’lmasdan , har bir imkoniyatlardan to’laqonli foydalanishdir.

Mamlakatimizda yosh avlodning jismoniy, intelektual va axloqiy jihatdan kamol topishiga ko’maklashish, ularni qonunlarga, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash kabi ustuvor yo’nalishlarni keng targ’ib qilishga qaratilgan tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. “O’zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo’yicha Harakatlar strategiyasi”da jismonan sog’lom, ruhan va aqlan rivojlangan, mustaqil fikrlaydigan, Vatanga sodiq, qat’iy hayotiy nuqtai nazarga ega yoshlarni tarbiyalash, demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish jarayonida ularning ijtimoiy faolligini oshirish kabi ustuvor vazifalar belgilab berilgan.



Bilamizki yaqin kunlarda Toshkent shahridagi "HUMO" muz saroyida "yoshlar forumi- 2020" bo'lib o'tdi. Unda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev Miromonovich o'zlarining yoshlarga qarata murojaatnomalarini o'qib eshittirdilar.

Prezidentimiz so'zining avvalida, o'z nutqini quyidagi misralar bilan boshladi, «Men har gal yoshlарimiz bilan uch rashganimda sizlarning g'ayrat-shijoatingizdan kuch-quvvat olaman, ko'nglim tog'day ko'tariladi. Har biringiz jonajon Vatanimiz va xalqimizga sidqidildan xizmat qilish orzusi bilan yonib yashayotganingizni yaxshi bilaman. Sizlarni O'zbekistonning eng katta boyligi, beba ho xazinasi sifatida qadrlayman.»

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev Miromonovich o'z nutqlarini davom ettirar ekanlar, yoshlar – davlatimiz suyanchi hisoblanishini yana bir bor baralla e'tirof etdilar: «Biz yurtimizda qanday islohotlarga qo'l urmaylik, avvalo, siz kabi yoshlarga, sizlarning kuch-g'ayratingiz, azmu shijoatingizga suyanamiz. Barchangiz yaxshi bilasiz, bugun o'z oldimizga ulkan marralar qo'yanmiz. Ona Vatanimizda Uchinchi Renessans poydevorini yaratishga kirishdik. Biz oila, maktabgacha ta'lim, maktab va oliy ta'limni hamda ilmiy-madaniy dargohlarni bo'lg'usi Renessansning eng muhim bo'g'irlari deb hisoblaymiz. Shu sababli ayni ushbu sohalarda tub islohotlarni amalga oshirmoqdamiz. Ishonamanki, mamlakatimiz taraqqiyotining yangi poydevorini yaratishda sizlar singari fidoyi va vatanparvar yoshlарimiz faol ishtirok etib, munosib hissa qo'shadilar».

Bundan tashqari 2021- yilni ham biz yoshlarga shijoat bag'ishlashi uchun yoshlarga mos qilib nomlanilishi ham bizga bildirilgan ishonch namunasidir. Shu o'rinda prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev Miromonovichning nutqidan parcha keltiraman: "Ana shu muhim yo'naliishlarda boshlagan ishlarimizni davom ettirish va yangi, yuksak bosqichlarga ko'tarish maqsadida kirib kelayotgan 2021- yilga mamlakatimizga "Yoshlarni qo'llab – quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili" deb nom berishni taklif etaman. Ushbu taklifni mana shunday qo'llab – quvvatlaganingiz uchun barchangizga chuqur minnatdorchilik bildiraman. Albatta , nom berish juda og'ir. Nimaga desangiz, mana bu yilgi og'ir yilga kelmasdan, shu ilm- fa'n, ma'rifatga bergen e'tiborimiz hamma sohalarda birinchi qadam – iqtisodiy natijalar bo'yicha ham qo'yan qadamlarimizga ham , albatta, yilga qanday nom berganimizga katta e'tibor qaratildi. Albatta , kelgusi yilga qanday nom berish bo'yicha juda ko'p tayyorgarlik qildik. Mana shu yoshlarga bo'lgan e'tiborimiz, mahalliy kengashlarda, mahalliy rahbarlar , umuman olganda butun muhit yoshlarga



e`tibor qaratishi lozim. Bundan tashqari pandemiya sharoitida amalga oshirganlarimiz bugun ham davom etmasa, aholi salomatligiga qanchalik ziyon keltirishiga guvoh bo`ldik. Ko`ndalang qo`ygan katta- katta muammolarni bugun qo`ymasak, keyin kech bo`ladi. Odamlarimiz mana shunday kamchiliklardan, mana shu muammolardan, ancha qiyaldik. Forumda ham yoshlar uchun katta – katta imkoniyatlar aytib o`tildi. Yoshlarga juda ko`plab sharoitlar yaratsak, ular ko`p narsaga qodir ekanligini bilamiz.”

Prezidentimiz o`z murojaatnomalarida ilm—fanga katta e`tibor qaratilishi lozimligi haqida aytib o`tdilar: “Ilm-fan yutuqlarining elektron platformasi, mahalliy va xorijiy ilmiy ishlanmalar bazasini shakllantirish lozim. Har bir oliy ta’lim va ilmiy-tadqiqot dargohi nufuzli chet el universitetlari va ilmiy markazlari bilan hamkorlikni yo’lga qo‘yishi shart.

Joriy yilda “El-yurt umidi” jamg’armasi tomonidan 700 dan ziyod olimlar, professor-o’qituvchilar chet elga ilmiy izlanish va malaka oshirish uchun yuboriladi.

Kelgusida bu ishlarni tizimli tashkil etishga bosh-qosh bo’lishi uchun hukumatda – Bosh vazir o’rinbosari, vazirlik va idoralarda hamda hokimliklarda esa – alohida o’rinbosar lavozimlari joriy etiladi.

Parlament ilm-ma’rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan ishlar to’g’risida hukumat, tarmoq va hududlar rahbarlarining hisobotini muntazam eshitib borishi lozim.”

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati:**

1. O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Miromonovichning Oliy Majlisdagi murojaatnomasi
2. O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Miromonovichning “Yoshlar forumi”dagi nutqi.